



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA INSTITUTI



INNOVATIVE
ACADEMY

**ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING
DOLZARB MASALALARI**
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLAR TO'PLAMI
20-OKTABR, 2025 YIL





ZO'TDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI

DENOV, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

"INNOVATIVE ACADEMY RSC" NASHRIYOTI

"ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB MASALALARI" VI RESPUBLIKA ILMIY- AMALIY KONFERENSIYASI

**Central Asian Journal of Education and Innovation
Volume 4, Issue 10: Special Issue
October 2025**

Conference has been listed in different indexings

**SIN
DEX**

OpenAIRE

**Google
Scholar**

**OJS
OPEN JOURNAL SYSTEMS**

**OPEN
ACCESS**

**doi
DIGITAL
OBJECT
IDENTIFIER**

zenodo

**«Innovative Academy RSC»
Denov – 2025**



ZO'TDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
DENOVI, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

ISSN: 2181-4481

«ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB MASALALARI» VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, (2025 yil 20-oktabr) - T.: Innovative Academy RSC, 2025

«Central Asian Journal of Education and Innovation» ilmiy-uslubiy jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olingan R-566946-sonli guvohnomaga ega.

Konferensiya tarkibidagi barcha materiallarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Index**, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar**, xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Nashr etishda qatnashganlar:

Mordayev Bekzod Turobovich, Akbarov Nurislom Axtamjon o'g'li, Toshxo'jayev Islomxo'ja Ilxom o'g'li, Akbarova Dilafruz Axtamjon qizi, Quchqarov Azamat Murotjonovich, Akbarova Dildora Axtamjon qizi

Tahririyat hay'ati a'zolari

Ruziyev Oybek Abdimo'minovich	Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Suvonov Zavqiddin Norqulovich	Filologiya fanlari doktori (DSc)
Suyunov Baxodir Turdiyevich	Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Jo'rayev Ilyos Ro'ziqulovich	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xidirov Rajabali Gulmatovich	Filologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Boymirzayev Akbarali Mingboyevich	Katta o'qituvchi
Ro'ziyev Qahramon Kuzimuratovich	O'qituvchi

© Innovative Academy RSC

© Mualliflar





ZO'TDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
DENOVI, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

4-SHO'BA. ADABIYOTSHUNOSLIK VA FOLKLORSHUNOSLIK TARAQQIYOTI.

СЕКЦИЯ 4. РАЗВИТИЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ И ФОЛЬКЛОРОВЕДЕНИЯ.

SECTION 4. DEVELOPMENT OF LITERARY STUDIES AND FOLKLORE STUDIES.

**ZO'TDB**ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZAR
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
DENOV, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

**ZAMONAVIY O'ZBEK AYOLLAR SHE'RIYATIDA ILTIJO OBYEKTALARI (YOR,
OLLOH, TABIAT...)****Nabiyeva Nodira Saidovna**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

UDK: 821.512.133'06.09-1

saidovnanodira9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378306>

Annatsiya. Maqola orqali ijodkorlarimizning she'rlarida iltijo obektlari hisoblangan yor, olloh, tabiat tushunchalariga to'xtalamiz. Xalqimizning yuragidan o'rin olgan shoirlari: Zulfiya Isroilova, Saida Zununova, Xalima Xudoyberdiyeva va Halima Ahmedova ijodlari misolida ko'ngil kechinmalarini, ayollarga xos bo'lgan nozik tuyg'ularni ko'rishib o'tamiz. Bu maqolada bejizga ayol ijodkorlarning ijodi yoritilmagan, chunki, iltijo – deganda, ojizlik, zayiflik tushunchalari ongimizga keladi. Ojizlik va zaiflik ayollar tabiatiga xos sifatlardir. Shuning uchun ham iltijo obyektlarini ochib berishda ayolarning ijodi yetakchi o'rinni egallaydi. Maqolani o'qish davomida bunga yana bir bora amin bo'lasiz.

Kalit so'zlar: iltijo, yor, olloh, tabiat, vafo, Zulfiya Isroilova, Saida Zununova, Xalima Xudoyberdiyeva va Halima Ahmedova

Аннотация: В этой статье мы сосредоточимся на понятиях любви, Бога и природы, которые считаются объектами молитв в стихотворениях наших художников. Мы исследуем эмоции и тонкие чувства, присущие женщинам, через произведения поэтов, занявших свое место в сердцах нашего народа: Зульфий Исроиловой, Саиды Зунуновой, Халимы Худойбердиевой и Халимы Ахмедовой. В этой статье мы не просто так рассказываем о творчестве женщин-художниц, ведь когда мы думаем о мольбе, на ум приходят понятия беспомощности и слабости. Слабость и немощь — качества, присущие женской природе. Вот почему женское творчество занимает ведущее место в раскрытии объектов молитвы. Вы еще раз убедитесь в этом, прочитав статью.

Ключевые слова: Сти, Йор, Йор, Аллах, Природа, Сайда Зунунова, Халима Худойбердиев и Калима Ахмедава

Annotation: In this article, we will focus on the concepts of love, God and nature, which are considered the objects of prayers in the poems of our artists. We explore the emotions and subtle feelings inherent in women through the works of poets who took their place in the hearts of our people: Zulfii Hsroilova, Saida Zununova, Khalim of Khudoyberdieva and Halima Ahmedova. In this article, we do not just talk about the work of women artists, because when we think about a prayer, the concepts of helplessness and weakness come to mind. Weakness and weakness are qualities inherent in female nature. That is why female creativity occupies a leading place in the disclosure of prayer objects. You will be convinced of this again by reading the article.

Keywords: Stage, Yor, Yor, Allah, Nature, Sayda Zununov, Halima Cheliberdiev and Kalima Ahmedava

She'riyatimizda o'zidan o'chmas iz qoldirgan, sadoqati, vafosi va sharqona go'zalligi bilan ko'ngillardan joy olgan Zulfiya Isroilova - sadoqat kuychisi bo'lib abadiy yashaydi. Shoirlarning she'rlarida ko'ngil kechinmalari boricha tasvirlangan. Ijodiga nazar tashlaydigan



bo'lsak, she'rlarining markazida "yor" obrazi turganligini ko'rishimiz mumkin. Uning ijod markazidagi "yor" shunchaki "yor" emas, balki umrining, ijodining asosiy manbaidir. Ijodkor "yor"ni ilohiy darajaga ko'targan, unga iltijo qilgan, yurak so'zlarini eshitishini undan so'ragan. Shoiraning "Hijron kunlarida" nomli she'rini tahlil qiladigan bo'lsak, undagi so'z nozikliklariga yana bir bora amin bo'lamiz:

Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor,
Ketma, aslo ketma ko'zimdan yiroq!
Garchi tushimda ham seni bir ko'rish—
Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq.

Yuqoridagi shoiraning yurak kechinmalari, ko'ngillarni jumbushga keltiradi. Ijodkor beihitvor "yor"ga iltijo qiladi, "Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor," bu jumladagi har bir so'z mahorat bilan qo'llangan. "ey"- undovini qo'llash orqali yorga bo'lgan iltijoni kuchaytirishga, yuksaltirishga erishib, kitobxon ko'ngliga yetkazib bera olgan. Bu misrada yorni shunchalik chiroyli sifatlar bilan ko'ngilga yaqin qilgan. "sevgisi aziz, sevimli"-bu sifatlar "yor"ning lirik qahramon uchun benazir o'ringa egaligini ko'rsatadi. Ikkinchi misrada, "Ketma, aslo ketma ko'zimdan yiroq!"- bunda yorga iltijo qilish, o'tinish yanada kuchayadi. Misradagi, "ketma, aslo ketma" takrori she'rdagi oshiqlik iltijosini yanada kuchaytirgan, jumla oxiridagi undov "!" belgisi "yor"ga bo'lgan ko'ngil kechinmalarini bor ovoza aytishga imkon bergan. Keying satrlarda, "Garchi tushimda ham seni bir ko'rish—Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq."-bu ikki satr mohirlik bilan bir butun holatga keltirilgan. "Yor" lirik qahramonning ruhda, butun tanasida, o'ng-u tushuda bo'lishini yolvorib so'ramoqda, shundagina tirikligini, nafas olayotganligini yetkazayapti.

Zulfiyaxonim o'z tuyg'ularni, mehr-muhabbatini, vafosini, ruhiy olamini o'z ijodiga ko'chirdi. Ijodkor ruhiyatida yaratganga bo'lgan ishonch va iymon yetakchi o'rinda turishini she'rlarida ko'rishimiz mumkin. Shoiraning "Yana bahor hokim" she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratsak:

Yana bahor hokim! Ey tangrim-hayot,
Ko'zim, qonim, kunim, umiddagi kuch,
Qalam dehqoniman, orom, lanjlik yot,
Libosim, nomusim, shonim bo'lib quch!

Bu satrlarda ollohg bo'lgan muhabbat, ishq namoyon bo'lgan. Lirik qahramon yaratguvchi "olloh"ga murojaat qilib, o'z istaklarini amalga oshirishini undan so'raydi. "Ey tangrim"-deb ollohg iltijo qiladi, uning buyukligiga yana bir bor aminligini takidlaydi. So'ng unga -"hayot, ko'zim, qonim, kunim, umiddagi kuch,"- deya sifatlarini berib, yashash manbai ekanligini, u siz hech narsaga qodr emasligini aytadi. Keyingi satrlarda, "Qalam dehqoniman, orom, lanjlik yot," jumlasini orqali "olloh" oldida o'zini oqlashga, qiyinchiliklarini tushuntirishga harakat qilmoqda. Shu orqali iltijolarini olloh amalga oshirishiga zamin yaratmoqda. So'nggi msrada, "Libosim, nomusim, shonim bo'lib quch!"-deyish orqali o'z istaklarini, orzularini ochiqchasiga olloh bajarishini iltijo bilan so'rash bilan birgalikda, amalga oshirishiga ishonchni ham singdirgan.

O'zining benazir ijodi, o'z uslubi bilan adabiyotimizda o'chmas iz qildirgan Halima Xudoyberdiyeva ijodini o'rganar ekanmiz. Hayot ijodkorni o'z sinovlari bilan toblaganligini, hayotga bo'lgan muhabbatini oshirganligini ko'rishimiz mumkin. Ijodining asosiy manbai



“muhabbat” ekanligini she’rlari orqali yetkazib bergan. Xalqiga, Vataniga bo’lgan “sevgi” tuyg’ularining jubushga kelishiga, quyma satrlarning yozilishiga sabab bo’lgan. “Vatandir bu” she’rining matniga to’xtaladigan bo’lsak:

Olloh, Olloh eranlarning
So’zi qolgan Vatandir bu,
Bo’zlab o’tgan to’rg’aylarning
Bo’zi qolgan vatandir bu.

Yuqoridagi parchada birinchi misraning o’zidanoq, ollohga iltijo boshlanganini ko’ramiz. “Olloh, Olloh” takrorini qo’llash orqali, iltijo kuchini yuksaltirgan, yalinish hissini singdira olgan. “Olloh”dan Vatanini asrashini, uni yuksaltirishini, tinchligini ta’minlashini so’raydi. “Olloh” bu ishlarni bajarishi uchun bir qancha asoslarni sanab o’tadi.

Xalima Ahmedova otashin so’zlari bilan ijod olamiga yonib kirib keldi. Ijodkor ruhiy olami hayot bilan birlashgan holda qog’ozlarga to’kildi. Ijod olami har bir kitobxonni sehrlab odadi desak adashmaymiz. U yozgan satrlarda o’quvchi o’z ichki olamini topadi. Shu sababdan, she’rlari yuraklarga yaqin turadi. Har qanday ishqning asosini yaratguvchiga bo’lgan ishq tashkil etadi. Ijodida shu g’oya yuqori o’rinda turadi. Shoiraning quyidagi sheri parchasini tahlil qilsak:

Begunoh parvardigor,
Gunohkorman oldingda..
Maysalarga aylansam,
Qolamanmi yodingda?!

Bu parchada Ollohning buyukligini birgina “begunoh” sifatlashi orqali kitobxon ongiga singdira olgan. Keyingi satrlarda “Olloh”dan gunohlarini kechirishini o’tinib so’raydi. Iltijo bilan nima qilsa, gunohlari yuvilishini, vijdoni oldida javob bera olishini mana bu- “Maysalarga aylansam, Qolamanmi yodingda?!” satr orqali ifodalab bergan.

Halima Ahmedovaning hayot yo’lida iymon, pokizalik yetakchilik qilgan. Ijodkor tabiatdagi har bir yaproq, maysaga havasini mohirlik bilan ifodalagan. Lirik qahramon nazdida maysa shu qadar pokki, beihtiyor maysa bo’lishni orzu qiladi. Go’yoki, maysa bo’lsa, “Olloh”ning mehriga sazovor bo’ladigandek his qiladi. Buni quyidagi misralarida aks ettirgan:

“Olloh, kaftlaringda bir kuni
Maysa bo’lib egilamanmu?”

Barchamuizga ijodi bilan tanish va qadrli bo’lgan ijodkor Said Zunnunova o’zidan avlodlariga katta badiiy meros qodirdi. Ijodining salmoqli qismini she’riyat tashkil etadi. Lekin, nasrda ham samarali qalam tebratdi. Qissa va hikoyalarida Vatanga bo’lgan sevgisini namoyon etdi. Ijodkorning she’rlarini tahlil qiladigan bo’lsak, shoiraning qalb nolalari aks etganini ko’ramiz. Saidaxonimning “O’tdimi” radifli masnaviy yo’lida yozilgan quyidagi satrlariga e’tibor qratsak:

Gullar yuzida xanda — bu bog’dan yor o’tdimi,
Odatin qilmay kanda, yana bedor o’tdimi?

Bu ikki misra -a,-a tarzida qofiyalangan bo’lib, lirik qahramonning iltijosini aks etirgan. Tabiatning mo’jizasi bo’lgan “gullar”dan yorining o’tganligini aytishini so’ramoqda. Ya’ni, bu bog’dagi gullar chaman bo’lib ochilgan, sababi yorimning kelganidir deb, tabiatga nola qilmoqda. Keying satrlariga qarasak:



Yellar nechun sarsari, ketolmaydilar nari,

Ko'nglimning moh paykari ko'zi xummor o'tdimi?

Bu satrlar –b,-a tarzida qofiyalangan, bayt orqali tabiatga bo'lgan iltijosini yanada kuchaytiradi, yorim o'tganligi uchun yellar ham yo'lidan adashdi, bu bog'ni makon etdi deb, tabiatga murojaat qilmoqda. Keyingi satrlarni ham tahlil qilsak:

Rayhonga rashk qilib gul, bag'ri qon bo'pti butkul,

Yana rayhon hidlab ul, bundan takror o'tdimi?

Yuqoridagi baytda lirik qahramon iltijo qilish orqali o'z isyonini tabiatga yetkazmoqchi bo'ladi. Yorim yana bog'ga keldimi, rayhonlar muattar hid tarqatmoqda, yorim qo'llari tegdimi, bundan gullar rashkdan yonib, qip-qizil bo'lob ochilibdi deb, o'z rashkini tabiatga isyon bilan ko'rsatmoqda

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijodkorlarimizning ayollar tabiatini ochib berishda iltijo obyektlari yuqori o'rinda turishini ko'rshimiz mumkin ekan. Ijodkor ruhiyatini, qalb ohlarini qalamlari vositasida qog'ozga to'kadi. Yorga, ollohga, tabiatga bo'lgan mehr-u muhabbatini she'rlari orqali bayon etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Худойбердиева Ҳалима. Танланган асарлар. — Т.: Sharq, 2020.
- 2.Мирпўлат Мирзо.Худойбердиева, Ҳалима. Шеърлар. [Матн] / Ҳ. Худойбердиева.- Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2016. – 48 б.– (Шоир кутубхонаси).
3. Зулфия. Асарлар. Икки томлик. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, нашриёти Тошкент — 1974
4. Zulfiya, "Xotira siniqlari". Adabiyot uchqunlari. Toshkent.2018. 5.H.Ahmedova
- 5."Erk darichasi" Adabiyot va san'at. 1996
- Nabiyeva, N. (2022). O 'zbek tili leksikasining tarixiy bosqichlari. Bilim Ve Yenilik, 1(B6), 858-864.
6. Nabiyeva, N. (2024). O 'zbek mumtoz shoyralari ijodida ishq mavzusi talqinlari. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 26-28.
7. H.Ahmedova "Tiyramoh" Adabiyot va san'at. 2005
8. H.Ahmedova "Nigoh qiblası" Adabiyoti va san'at. 2011
9. H.Ahmedova "Afsun" Adabiyot va san'at. 2013
2. Said A. Topganlarim va yo'qotganlarim (Xotiralar adabiy o'yalar) . Sharq , -T.:2000. – bet 335
10. Amirkulov, S., & Islomov, S. (2023). Component Parts Of The Plot. Talqin va tadqiqotlar, 1(20).
11. Zununova S. Ruh bilan suhbat // Nilufar. She'riy to'plam. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
12. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.